



## MAKTABGACHA VA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISH USULLARI

*Mingboev Shohruxbek Obidjon o'g'li*

*Namangan davlat universiteti pedagogika-psixologiya fakulteti amaliy psixologiya yo'nalishi 2-kurs  
talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha va umumiy o'rta ta'lismida xorijiy tillarni o'qitish usullari yoritilgan. Bugungi kunda chet tillarini o'rganish, ayniqsa o'sib kelayotgan yoshlar uchun katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, chet tilini bilgan insonda lotareya yutug'i borga o'xshaydi. Unga tayyorlash, o'qitish tizimidagi qiyinchiliklar, muammolar va ularning yechimini o'z ichiga olgan ushbu maqola yosh o'quvchilarни qanday chet tiliga qiziqtirish va o'rgatishn to'g'risida bayon qiladi.

**Kalit so'zlar:** Xorijiy, metod, chet tili, tafakkur, o'yinchoq, guruh, tarbiyachi, ishonch, kompyuter, muammo, dolzarb.

### KIRISH

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan ta'lismi va taraqqiyot kelajak uchun yaxshi poydevor bo'la oladi deb bemalol aytsa bo'ladi, chunki ilm olayotgan yoshlar va o'spirinlar har bir bilimni yuqori darajada o'rganishni xohlaydi. Buning uchun maltabgacha ta'lismi, muktab va universitetlar katta rol o'ynaydi. Ingliz va rus tillarini o'rganish ham har bir ilm egasi uchun kerak. Shu junladan boshlang'ich ta'lismi tashkilotida va yuqori sinflarda ham chet tillarini o'qitish ularni dunyoqarashini va til bilish qobilyatini oshirishda qo'l keladi. Til bilgan-el biladi degan gapni har kim va har qachon eshitadi. Kichik davrda bolaning endigina rivojlanib borayotgan ongi va psixikasiga nima ma'lumot kiritilsa shuni o'zlashtirishni boshlaydi. Misol uchun, bir bolaga telefon bersangiz o'rgangani va qiladigan ishi, o'tkazgan vaqt telefon bilan bo'ladi. Agarda unga kitob berilsa ba rivojlanayotgan zamonda ularni yangicha tilni o'rganishga qiziqtirilsa juda ham to'g'ri fikr va foydali bo'ladi.

Xorijiy tillarni o'qitishning asosiy tamoyillari muhimlik mezoni asosida quyidagi tartibda umumlashtirilgan:

- 1) mazmunli kontekst va o'quvchi yoshiga mos mavzu tanlash (didaktik);
- 2) ingliz tili o'rganishga ijobiy yondashish (pedagogik);
- 3) xolistik o'rganish (metodologik);
- 4) ingliz tili amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilarning yoshga oid psixologik va jismoniy yetuklik darajalarini to'liq inobatga olish (psixolingvistik);
- 5) o'quvchilarini o'zgalarga nisbatan bag'rikenglik va turli qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash (pedagogik);
- 6) vizual yondashuvga ustuvor ahamiyat bergen holda boshqa nutq analizatorlarining to'liq ishtirokida o'rganish (psixologik masalalarini metodologiyaga tatbiq etish);
- 7) ingliz tili o'rganishga motivatsiya uyg'otish (ichki turtkini qo'zg'atish) (psixolingvistik);
- 8) shaxsga yo'naltirilgan ta'lismi, o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish (pedagogik);



- 9) nutq hosil qilinishi uchun tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish (didaktik);
- 10) mashg‘ulotlarni imkon qadar o‘rganilayotgan chet tilda tashkil etish (pedagogik);
- 11) o‘quvchilarning ingliz tilio‘rganish strategiyalari va usullarini hisobga olish (didaktik)

Chet tilni o‘rganish uchun erta yosh afzalroq bo‘lishining yana bir sababi bor. Bola qancha yosh bo‘lsa, shuncha kamroq bo‘ladi. So‘z boyligi yilda mahalliy til, ammo shu bilan birga uning nutqiga bo‘lgan ehtiyojlari ham kam: kichik bolada aloqa sohalari katta yoshdagilarga qaraganda kamroq, u hali murakkab aloqa muammolarini hal qilishi shart emas. [1].

Ularni o‘qitishda albatta turli xil qiyinchiliklarga va tushunmochiliklarga duch kelinadi. Jumladan bolani bir yo‘nalishga yo‘naltirish uchun, misol uchun til o‘rgatish, kitob o‘qittirish va hokazo, shularni yaxshi bilish kerakki, avvalo bolaga buni oson ekanligini tushuntirish kerak. Chunki, bola ozgina qiynalib qolsa, yoki tushunmay qolsa voz kechishi oson bo‘ladi, bundan ko‘ra osonroq o‘yin o‘ynashni xohlab qoaldi. Avvalo, ular qiziqishi uchun birinchi ishni o‘qituvchi boshlashi kerak, ya’ni o‘qituvchi ularga mehr-muhabbat bilan, huddi onasi kabi yondashishi kerak. Mehr bilan berilgan ilm va yaxshilik doim esida qoladi va hurmat qilib o‘zlashtirishni boshlaydi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning shunday gapi bor edi, “Tafakkur” jurnaliga bergen intervyumda Amir Temur bobomizning “Kuch-adolatda” degan fikrini rivojlantirib, “Kuch–bilim va tafakkurda” degan g‘oyani o‘rtaga qo‘ydim degan edi [2]. Xalqimiz aytganidek, bilagi bor birni yiqitar, bilimi bor mingni yiqitar.

Chet tilini o‘rgatishdan oldin o‘quvchi, yoki bolalar bilan kelishib olishi kerak. Misol uchun mактабгача даврни олайлик. Kirib kelgan va ilk tasavvur uyg‘otishni boshlash avvalo biriktirilgan tarbiyachi boshlanadi. Birinchi navbatda u bolalarga mehribon bo‘lishi, shirin gaplar aytishi, qo‘lidan kelgancha yordam berishi, muammosi bo‘lsa hal qilishi va chin dildan suhabat qila olishni boshlashi kera. Birinchi uchrashuv esda qolarlidir, shuning uchun tarbiyachi o‘zini shu darajada ko‘rsatishi kerakki, bolalar uni ko‘rib o‘zining qahramoni sifatida ko‘rishi, ko‘rganda ko‘zlari quvonishi kerak. Bolalarni bir biridan ajratmasligi kerak. Tarbiyachining mehribonligi tufayli bolalar har bir aytganini so‘zma-so‘z qilishga o‘rganadi. Birinchi muammolardan bir, yoxud kirish deb atasak ham bo‘ladi. Ya’ni tarbiyachi bolalarning ko‘z oldida boshqa dunyodan kelgan qahramon sifatida ko‘rinishi kerak.

Ikkinci tomondan, o‘zini ko‘rsata olgan tarbiyachining keyingi ishi bolalarga o‘qitilmochi bo‘lgan tilni oson ekanligini va qiziq ekanligini, kelajagi uchun foydali ekanligini tushintirishi kerak, rasmlar bilan ko‘rsatilsa yanada tilga nisbatan fikrlari oshadi. O‘rganishga ishonchi va qiziqishi oshadi. Avvalo, o‘qituvchi, keyin esa xonaning ko‘rinishiga e’tibor berilishi kerak, chunki tashqi ko‘rinish ham muhim ahamiyatga ega. Bolalar o‘z xonasiga kirganda zamonaviy dunyoga tushib qolganday bo‘lishi kerak, yoxud ertakka. Yetarli jihozlar bilan ta’minlanganligi, avvalo rasmlar orqali ifodalangan ko‘proq ko‘rsatmalar, o‘quv jarayoni ko‘rinishi kerak. Aytaylik, ingliz va rus tilini o‘rgatishda bolalarga eng qiziqarli bo‘lgan rasmlardan foydalanishi, televizor va kompyuterdan foydalanish ham ularda qiziqish va yangi ilmlarni olishga imkon yaratadi. Kompyuter bilan ishlashni ham o‘rganadi va kompyuterda yozilgan inglizcha va ruscha so‘zlarni esida saqlab qoladi. Vaqtiga vaqt bilan kompyuterda aqlni charxlash uchun o‘yinlar ham o‘tkazilishi kerak. Chunki, o‘yin vaqtida ingliz va rus tilidagi so‘zlarni yod olishni boshlaydi, yodlashni xohlamasa ham o‘zi tushinishni boshlaydi. Hozirgi muammolardan biri shuki, bolalarning guruhsida ko‘payib ketganligi desa ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Bolalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, ularning hayoli ham chalg‘ishni boshlaydi, o‘qituvchi ham hammaga birdek e’tibor bermasligi mumkin. O‘qituvchi bir martta e’tibor bermasa qolganlar ham darsdagi jarayonni o‘zlashtirishni to‘xtatishni boshlaydi. Yetarlicha bilim ko‘nikmaga ega bo‘lsih uchun avvalo sharoit yaratilishi kerak. Ingliz va rus tiliga qiziqishini orttirish ularga katta foyda beradi va tezlik bilan o‘zlashtirishni boshlaydi, jumladan ularda ilmiy musobaqalar o‘tkazib turish, kim o‘zarga o‘ynash, kunlik va haftalik ballarini bolalarga ko‘rsatish va maqtash ham ko‘p qo‘l keladi. Ayniqsa, ularni haftasi bilan bir, yoki ikki martta taqdirlab turish muhim. Chunki, bola qanchalik bilim olsa, uning natijasini tez ko‘rishi xohlab qoladi, bu vaziyatda ularni ballarini ko‘rsatib, ularni maqtash orqali ularga katta mativatsiya va mativ beriladi. Tarbiyachi bolaning ota-onasiga



o'zlashtirayotgan ilmini qay darajada ekanligini aytib turishi kerak. Albatta, faqat tarbiyachi emas, ularning ota-onasi bilan ham yaqindan ishlash kerak. Ota-onasi va tarbiyachi birga harakat qilsa, bolaga shuncha maroqli va ko'p e'tibor berilayotganligi uchun yoshligidan ko'plab tushunchalar paydo bo'ladi, o'qish yuzasidan mas'uliyat uyg'onishni boshlaydi. O'sib kelayotgan yosh esa yanada ilmga chanqoq bo'lib boraveradi. Ingliz va rus tilini o'qitishda avvalo bolaga muhit yaratilishi kerak, ya'ni uni shu davlatda yashayotgandek his qildira olishi kerak. U uchun chet tillari kelajagi va kasbi uchun eng kerakligini tushintirish kerak. Ota-onasi tomonidan yaxshigina sharoit yaratilishi, unga kerakli o'quv qurollarini olib berishi ham muhim. Bolani ko'pincha yomon do'stlarini orasida emas, balki ko'p kitob o'qiydigan va yaxshi tarbiyali bolaga sherik qilishi kerak. Bola qanchalik ilm o'rganaman desa yonida uni chalg'itadiganlar ko'p bo'lsa u hech narsani o'rgana olmaydi. Ingliz va rus tilini o'rgatishda avvalo, bir xatoga yo'l qo'ymaslik kerak, ya'ni ko'pgina mashg'ulot o'tmaslik va ularni zeriktirib qo'yish katta ehtimoli bor.

Chet tilini o'qitishda dolzarb muammolar:

Birinchi bo'lib boladagi qiziqishni bilmasdan uni majburlash,

Qiyin topshiriqlarni berish,

Tushunmay qolgan bolaga qayta tushuntirmaslik,

Tarbiyachi tomonidan ularga yomon munosabatda bo'lish,

Yetarlicha johozlarga ega bo'lmaslik,

Ota-onasi bolaga nisbatan e'tiborsiz bo'lish,

O'quvchi soninning ko'pligi,

Ularni chalg'itagan narsalardan yiroq bo'lishi,

Ko'p o'qitish va yod tushunchalarni tushunmasa ham o'rgatish.

Misol uchun, ingliz tilini o'rganishda birinchi bo'lib oddiy fikrlashdan boshlash kerak, oddiy so'zlar orqali gaplar tuza olishni o'rgatish, ularda ilk tushunchalarni to'g'ri bera olish muhimdir. Ota-onalar bilan bolalari har kuni bir dasturxon atrofida yig'ilib tushlik qilishi ham katta baxt. Ularning ilim olishida ham katta ro'l o'ynaydi. Bizning diyorimizdag'i insonlarning niyyati va qalbi pok, hammasi vatanimiz uchun erta tongda va har vaqtda duo qilishga shaydir. Niyyatlari esa katta kuchga ega ekanligini bilib ham doim vatanimiz uchun eng yaxshilarini so'raydi. Niyyat haqida gap ketganda bir insonni gaplarini eslab o'tish biz uchun foydalidir, ushbu inson o'zining "Niyyatning kuchi" kitobida shunday yozadi, "Biz o'z olamimizni fikrlarimiz, tuyg'ularimiz bilan yaratamiz. Bizning faoliyatimiz so'zdan emas, harakatdan emas, balki fikr va tuyg'ularimizdan boshlanadi. Fikr energiyaning universal shakli va uning kuchi juda ulkan" [3]. Ko'rib turganingizdek har bir inson o'z olamini o'zi yaratadi, hamma insonlarning olami turli-xil, ularning fikrlashlari, o'ylari, qilayotgan ishlar ham turliche. Bolaga ham aynan shunday ta'sir qilish kerak va to'g'ri fikrlashni o'rgatish kerak. Misol uchun, men so'zi ingliz tilida I (ay) ya'ni bu birgina so'z bo'lsa, shunga bog'lab boshqa so'zlarini qo'shish, har tomonlama gap hosil qilishni o'rgatish kerak. Eng muhimi, chet tiliga qiziqishi yo'qotib qo'yimaslik kerak. Bunday muammoni yechishda birinchi navbatda boladan emas, tarbiyachidan va ot-onadan talab qilinadigan narsa bu bolaga nisbatan mehrli bo'lishdir, chunki bolaga qanchalik mehr berib yaqinlashib borilsa unga nima aytсангиз ham qilaveradi, nimani tushintirsangiz tushinaveradi, chunki siz uning nazdida kattagina qahramonsizda! Avvalo, xona jihozlariga e'tibor berish, kerakli ashyolar bilan ta'minlash zarur. Ularga ko'proq multfilm va ertak, qiziqarli hikoya qilish orqali o'rgatilsa chet tilini o'rgatishda eng foydasi katta bo'ladi. Ko'p joylarda tarbiyachilar bolalarga yomon munosabatda bo'lishadi, baqirishadi, ko'ngliga qaralmaydi, muammosi o'rganilib chiqilmaydi, unga avvalo chet tilini o'rgatish uchun birinchi o'rinda ma'naviy ishlash kerak, har qanday qiyinchilagini yo'q qilgandan keyin u bilan ilm yo'lida ilm izlash osonroq va tezroq bo'ladi.

Boshlang'iz tashkilotiga kelsak, bunda ham bir qancha metodikalar va treninglar, o'yinlar orqali



amalga oshirish katta foydali bo'ladi. Boshlang'iz ta'lim vaqtiga kirgan o'quvchilarda endigina rivojlanayotgan psixikasi, miyasi, ongi, xarakteri shu vaqtda oladigan bilim va tajribalar bilan amalga oshadi. Endigina maktabga qadam qo'ygan o'quvchi chet tilini o'rganishlik uchun unga alohida e'tibor va ko'mak ajratish zarur. Chunki, har bir bolada xarakter, aql, dunyoqarash tushunchalari bir xil emas. Ularni nazdida maktab ilm dargohi, ya'ni kelib ketadigan o'yingoh emas. Maktab davrlarda ham chet tili uchun yetarlicha sharoit yaratilishi, keraklicha jihozga ega bo'lishi zarur, albatta o'qitadigan o'qituvchi ham anchagina tajribali bo'lishi shartdir. Chunki, guruhda 20 ta bola bo'la shuncha o'quvchi bilan ishlash hammaning ham qo'lidan kelavermaydi, ayrimlarni asabi yetmaydi, ayrimlarni esa yaxshilab o'rgatgisi kelmaydi, erinchoqlik qiladi. O'qituvchi qanchalik kuchli mutaxassis bo'lsa, shunchalik bolani qiziqtira oladi, bolaga bilim berishda charchamaydi. Bolani ham qiziqishini o'ldirib qo'ymaydi. Chet tilini niam uchun kerakligini tushintirish kerak, kelajak uchun qanday foyda keltirishini ko'rib chiqishi zarur. Kelajakda qanday kasb egallashiga qarab qiziqtirishi kerak. Hamma ham bиринчи bo'lib qiziqavermaydi. Ularda bilim olish kam, yoki ko'p, yoki qiziqmaydi. Boshqa do'stlarini o'qiyotgaligini ko'rsatish, boshqalarni o'rnak qilish ham muhimdir. Borgan sari o'zidagi bilimni oshirishda o'qivchi ham shiddatlashib boraveradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'quv xonasining yetarlicha dekoratsiya qilinganligi, ya'ni o'ziga xos tarzda chet el davlatlaridagi holatni aks ettirishi kerak. Misol uchun, olimlar tomonidan o'rganilayotgan mahviy joy bo'lsa uni maketini yasab o'rganish qiyin. Lekin, aynan o'sha joyga borib o'rganiladigan bo'lsa, ham amaliyotda bo'ladi va shu yerdaligini his qilgan holda bu imkoniyatdan foydalanish kerakligini biladi. Ko'proq o'quvchilar bir biri bilan muloqotchan bo'lishi kerak. Chunki, muloqot o'sadigan yoshlarda tortinish bo'lmaydi. Ayrim o'quvchilar borki, ular so'rashishdan o'zini olib qochadi. Chunki, ularning boshlang'ich nuqtasi shu edi, tortinish bilan boshlandi.

Ikkala holatni ko'rib chiqilganda, chet tillarini o'qitishda asosan e'tibor beriladigan asosiy holat bu o'qituvchi, ota-onas, tarbiyachiga, keyin esa bolaning o'ziga bog'liq bo'lyapti. Chunki, bиринчи bo'lib bolani yo'naltirib qo'ymas ekan bola ham o'zi yo'nalishi qiyin. Qaysi o'ynichoqni o'ynashni bilmagan bola, chet tilini o'rganishi qiyin kechadi, chunki bu jarayon o'ynlardan va o'ynichoqlardan qiyindir. Shuning uchun, ota-onas orqali, tarbiyachilar bir necha kishi harakat qilmas ekan bolaga ham qiyin. Keyinchalik, kirishib ketgandan keyin uni yo'naltirishni ham keragi yo'q, chunki bu jarayonda ketayotgan bo'ladi. Bolaga kitob bering, yo'qsa internet sizning bolangizni tortib oladi!

**Foydalanilgan adabiyotlar;**

- 1) <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarga-ingliz-tilini-o-rgatish-usullari>
- 2) 2016. ПРОГРЕССИВНЫЕ И РЕГРЕССИВНЫЕ ТИПЫ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ. *NovaInfo. Ru.*
- 3) Valeriy Sinelkinov, "Niyyatning kuchi", "Buxoro" nashriyoti. 2015. 16-bet.
- 4) Odilboyevich J. H. SHAXS VA UNING TEMPERAMENTIDA PSIXOLOGIK HIMoya MEXANIZMLARINING ORNI VA AXAMIYATI MOSLASHISHDA UNING TARKIBIY QISMLARI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 19. – С. 78-84.
- 5) Одилбоевич Ж. ШАХС ВА УНДАГИ ПСИХОПАТИЯ ХОЛАТЛАРИ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАБЛАРИ ВА ПРОФИЛАКТИКАСИ //PEDAGOG. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 693-699.
- 6) Haydarjon J. SHAXS IJTIMOIY XIMOYASIZLIGINI OGISHGAN XULQ ATVORGA TASIRINI IJTIMOIY PSIXOANALITIK MEXANIZMLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 9-12.
- 7) Odilboyevich, J. H. (2023). SHAXSLARARO MULOQOT DAVOMIDA MULOQOTNING VERBAL VA NOVERBAL HARAKATLARDA SHAXNING KOZ QARASHLARI VA YUZ MIMIKASIGA QARAB YOLG 'ON ALOMATLARINI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK TAVSIFI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 15(5), 59-64



- 8) Jurayev, H. (2022). OILAVIY MUNOSABATLARNING BOLA RUHIYATIGA TA'SIRI. NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI PSIXOLOGIYA KAFEDRASI.
- 9) Odilboyevich, Jurayev Haydarjon. "SHAXS XAYOT DAVOMIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINING ORNI VA AXAMIYATI." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 16.2 (2023): 128-133.